

**BUXORO MA'RIFATPARVAR JADIDLAR VA ULARNING ILMIY  
ME'ROSINI O'RGANISH PEDAGOGIK MUAMMO SIFATIDA**

*Ro'ziqu洛va Sevara Nortoy qizi*

*Navoiy davlat universiteti Pedagogika nazariyasi va tarixi mutaxassisligi*

*1-bosqich magistranti. e-mail: [sevararoziqulova01@gmail.com](mailto:sevararoziqulova01@gmail.com)*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolaning asl mazmun-mohiyatida XIX ars oxiri XX asr boshlarida vujudga kelgan jadidchilik harakati va bu harakat Buxoro diyorida qanday shakillanganligini mujassamlashgan. Maqolada Buxoroda jadidchilik harakati vujudga kelishi uchun sabab bo'lgan omillar keltirib o'tiladi. Jadidchilik vujudga kelgan davrning ma'naviy qiyofasi birmuncha yoritilgan. Yana shuningdek, o'sha vaqtgagi xalqning ma'naviy va ruhiy holati haqida ham to'xtalib o'tilgan va diyordagi eng mashhur jadidlarni nomlari sanab o'tilgan.

**Kalit so'zlar:** jadidchilik harakati, Buxoro jadidlari, ma'rifatparvarlik, madrasa, islo Hatchilik, milliy ozodlik, "Muzaaffariya", qadimchilar.

**Аннотация:** Основное содержание статьи - джадидское движение, возникшее в конце 19-го и начале 20-го веков, и как это движение формировалось в Бухарском регионе. В статье представлены факторы, которые привели к возникновению джадидского движения в Бухаре. Несколько освещен духовный облик периода возникновения джадидизма. Также затронуто духовное и умственное состояние народа в то время и перечислены имена наиболее известных джадидов региона.

**Ключевые слова:** джадидское движение, бухарские джадиды, просветительство, медресе, реформизм, национальное освобождение, «Музтаффариа», древности.

**Abstract:** The main content of this article is the Jadid movement that emerged in the late 19th and early 20th centuries and how this movement was formed in the Bukhara region. The article cites the factors that led to the emergence of the Jadid movement in Bukhara. The spiritual image of the period when Jadidism emerged is somewhat illuminated. It also touches on the spiritual and mental state of the people at that time and lists the names of the most famous Jadids in the region.

**Keywords:** Jadid movement, Bukhara Jadids, enlightenment, madrasa, reformism, national liberation, "Muzaaffaria", ancientists.

**Kirish.** XXI asr ilm-marifat va fan-texnologiya asri bo'lganligi sababli, eng ko'p e'tibor ta'lim-tarbiya, ilimliklik darajalarini, ilmiy meroslarni tadqiq qilib o'rganib, ularni zamonga moslashtirish va ulardan foydalanib natijalarga erishishga qaratilmoqda. Shu jumladan, ta'lim-tarbiyani yaxshilash maqsadida, ma'rifatparvar

jadidlarning hayoti, ilmiy-ijodiy faoliyati, ilm-marifatdagi qilgan ishlarini o'rganish hozirgi kunning e'tibor markaziga aylandi. Jadidlarni o'rganish bir qancha harakatlар boshlab yuborilgan va bunda tadqiqotchilar turli yo'nalishlar bo'yicha tadqiqot olib bormaqdalar.

Jadidlarga ma'rifatparvar g'oyalarni tarqatish va millatni bilimli qilish g'oyalari qayerdan keldi? Ular ham shu jamiyatning eskilikka yopishib olgan, an'anaga daxl qiluvchi har qanday hodisani "shoshqoloqlik" atab, taraqqiyot yo'lidagi toshga aylangan qatlam ichidagi insonlar ediku? Birinchi muammo jadidchilik qanday sharoitda shakillandi?

XIX asr oxiri XX asr boshlarida dunyo siyosiy maydonida ham, Turkiston maydonida ham va jumladan Buxoro diyorida ham siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayot bir muncha og'ir edi. Dunyo ikki xil tuzumni mustamlakachilar va mustamlkalardan iborat edi. Buxoro ham Rossiya tomonidan 1868-yilda bosib olingandan so'ng mustamlakachi davlatga aylandi. Mustamlakachilik Buxoro uchun ham iqtisodiy-siyosiy, ham ijtimoiy-madaniy sohalarda mavjud vaziyatlarni yanada og'irlashtirdi. Xalq oldin amirlik uchun ishlagan bo'lsa endilikda bunga ruslar ham qo'shildi va xalqning axvoli ham yanada og'irlashdi. XIX asrda bunday xolatlardan norozi bo'lgan xalq kichik-kichik noroziliklar uyushtirdilar, ammo bu norozilik harakatlari Buxoro va ruslardan yonlangan qo'shinlar tomonidan bostirilib borildi. Yana shuningdek boshqaruv sohalarida ham asosan Rossiyadan ko'chirib keltilganlarning rahbarlik qilishlar xalqni tobora ahvolini yanada og'irlashtirar edi. Rossiyaning bunday siyosat yuritishidan maqsad O'rta Osiyoni arzon ishchi kuchi va mamalakati iqtisodiyoti uchun xomashyo bazasiga aylantirish edi. Turkiston zamini Rossiyadan keltiligan tayyor sanoat mollari bilan to'ldirilib, mo'may daromadni qo'lga kiritayotgan rus hukumati va firmalariga bu yoqardi. Umuman aytganda rus hukumati o'lkan boyliklarini talash va o'zining mustamlakasiga aylantirish yo'lidan hech narsadan toymadi.

Turkiston, jumladan Buxoro iqtisodiy hayoti ham aynan shu maqsadga tobe xolda hayot kechira boshladi. O'lka xalqlarining erk va hurriyat uchun kurashi milliy-ozodlik harakatlari mazmun-mohiyatida o'z aksini topgan bo'lsa, milliy taraqqiyparvar kuchlarning ma'rifatchilik harakati jadidchilikda namoyon bo'ldi.

"Ellik yildan beri, - deb yozgan edi Furqat, - ezildik, taxqir etildik. Qo'limiz bog'landi. Tilimiz kesildi. Og'zimiz qoplandi. Yerimiz bosildi, molimiz talandi. Sharafimiz yemirildi, nomusimiz g'asb qilindi. Insoniyligimiz oyoq osti qilindi. Tizimli turdik, sabr etdik. Kuchga tayangan har bir buyruqqa bo'ysundik. Butun borlig'imizni berdik".<sup>1</sup> Mana shunday qalbida ozodlik hayqirayotgan millatning farzandlari o'zlarning harakatlarini boshlash yo'lida kichik qadamlamlarni tashlay boshladilar.

---

<sup>1</sup> "Sharq yulduzi", 1992-yil, 10-son, 173 b.

Buxoroda shakillanayotgan jadidchilik harakati saflarida tur xildagi qatlamni uchratish mumkin edi. Biri savdogar oilasida tug'ulib Rossiyada ta'lim olib kelgan, biri Mir-Arab madarasasida ta'lim olib, Haj ziyoratiga borib keyin Eron, Arabiston, Hindiston o'lkkalariga sayohat qilib kelgan, Turkiyaga borib chet ellik ziyyolilar bilan uchrashgan, biri madrasa ta'limini olib o'zining maktabini ochgan, biri o'zining hajviylik qobliyatlari namoyish qila olgan shoir va hattoki o'sha vaqtida ruslashtirish siyosatini yuritish maqsadida ochilgan rus-tuzum maktablarida o'qib chiqqanlar orasidan ham mavjud edi. Bu kabi turli xil qatlam orasidan chiqqanlarni birlashtirib turgan asosiy birdan-bir vazifa bu xalqni ilimli qilish va jamiyatda o'z o'nini topgan insonlarni ko'paytirish edi. Vatanga sodiqlik va uning mustaqilligini qaytarish fikrlari ham jadidlar yetakchiligidagi jamiyatdagi barcha qatlamlarni ozodlik kurashiga chorladi. Jadidlar o'sha paytdagi vaziyatdan kelib chiqqan holatda, birinchi o'rinda xalqning savodini chiqarish, bilimini oshirish, milliy his-tuyg'ularini va siyosiy ongini o'stirish uchun harkatni boshlaganlar. Boshqacha qilib aytganda, ular faoliyatining dastlabki bosqichida ma'rifatparparlik salmoqli o'rinn egalladi. Ammo, bu ularda siyosiy g'oyalar va maqsadlar yo'q edi deyish emas, albatta. Siyosiy qarashlar ham mavjud edi, lekin uni darxol amalga oshirish uchun dastlabki vaqtarda sharoit mavjud emasdi. Shu orqaligina bir millatni butunlay qaramlikdan ozod etish mumkin edi.

Bundan tashqari xalqning ma'naviy holati ham jadidchilik harakatini shakillanib, harakatga kelishiga majbur qildi. Jumladan, chor Rossiyasi maxfiy ma'lumotlaridan biri, Eron va Turkiyadagi milliy ozodlik harakatlari hamda 1905-yil rus inqilobidan keying Buxoro axli to'g'risida bunday ma'lumot beradi: <<Buxoroda madrasalar ko'p bo'lsa-da, xalq ortiq nodon, siyosiy fikr degan gaplar hech ham yo'q. Rusiya inqilobi haqida hech narsa anglamaydurlar. Ma'lumoti bo'lganlari ham Rusiya inqilobini inqilob deb bilmaydurlar. Nima bo'lsa ham Buxoroda o'zgarish ehtimoli juda uzoqdir>>. Shu xufya Buxoro axlining siyosiy saviyasi to'g'risida mulohaza yuritib, yana bunday yozgan: <<Buxoro bozorlarida turgan qishloqliklardan durust ma'lumot ololmadi. Sababi, ular, birinchidan, shaharga ish bilan kelganlarida so'zlashib o'tirishga vaqtleri yo'qdir. Ikkinchidan, siyosatdan gapirishga amirning xufyalaridan qo'rqaqdurlar, chunki, amirning xufyalari nihoyatda ko'p bo'lib, siyosiy bir gap eshitsalar, ushlab, darrov zindonga soladilar>><sup>2</sup>.

Bu kabi holatlar birgina Buxoroda emasdi, butun Turkiston diyordagi holat edi desak adashmagan bo'lamiz. So'zimizning isboti sifatida Turkiston ma'rifatparvari A.Avloniyning o'z asarlarida millatning turmush tarzi, uning dunyoqarashi, tafakkuri hamda madaniyatining darajasini ifoda qilib, shu davrdagi milliy ruhiyatning nechog'li darajada nochor bo'lganligini ifodalab bergenini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, u, shunday yozadi: —... Ehtimol, bizning xalq ilmu ma'rifatni, tarbiya va ta'limni, hunar va sanoatni yaxshi ko'rар, deb o'ylaydurg'onduursan? Yo'q, bu fikringiz yanglish..

<sup>2</sup> Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.(Davriy to'plam) T.: Universitet. 1999. 30b.

Eshonlarimiz toat va ibodat, pandu nasihat, zikru tasbeh o‘rniga to‘ylarida to‘n kiyub ko‘p oshab, ko‘p uqlashni yaxshi ko‘rurlar. Ulamolarimiz darsu ta’lim o‘rnig‘a, bir-birilari ila o‘rin talashib mukarrir va mudarris bo‘lishni, o‘zları bo‘lalmay qolsalar, eshikma-eshik yurub saylovni buzushni yaxshi ko‘rurlar. Imomlarimiz, xaloyiqg‘a va‘z va nasihat o‘rnig‘a, to‘y va janozalarda yurub, joma kiyishni yaxshi ko‘rurlar. Boylarimiz orqa-o‘nglariga qaramasdan, foyda va zararlarini oyirmasdan bir-birlarig‘a raqobat qilaman, deb —bonkal va —kreditlarini ko‘payturub, do‘ffilari tor kelganda rus va yahudiylarning bukib-sinishini yaxshi ko‘rurlar. Mo‘ysafidlarimiz namoz va niyoz o‘rniga, masjid eshigiga yig‘ilib o‘turib, har kimni g‘iybat va shikoyat qilishni yaxshi ko‘rurlar. Muallimlarimiz bir-birlaridan qizg‘onishub, bolalarni arzon o‘qitaman deb, bir o‘zlariga yuz, yuzdan ortiq bola yig‘ub, o‘zları to‘y va ma’rakalarda bolalarning umrini bekor o‘tkarishni yaxshi ko‘rarlar. Ammo men bo‘lsam, hozirgi zamonda indamasdan turishni yaxshi ko‘rurman[10]. Agar Abdulla Avloniyning aytganlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, unda millatning g‘ayriaxloqiy ruhiy holati bilan bog‘liq barcha illatlar mohiyati ochiladi. Jadidchilik harakatining vujudga kelishi birinchidan, Islomdagi tarqqiyatparvarlik, ilm-fanga rag‘bat va dunyoviylikning yangi davrdagi ko‘rinishi sifatida paydo bo‘ldi.

Jadidlar islomni har xil muttassiblik bidatlaridan asrab rivojlantirgan ko‘rinishda namoyon bo‘ldi. Ikkinchidan, jadidchilikning paydo bo‘lishi va rivojlanshiga Sharq va G‘arb mamlakatlarida rivojlangan quyidagi, demokratik, milliy-ozodlik, islohotchilik harakatlarining ta’siri ham kuchli bo‘ldi.

1. Jamoliddin Afg’oniy(1839-1897) va Muhammad Abdolar (1848-1903) asos solgan musulmon dunyosidagi islohotchilik va “naxda” (uyg’onish) harakatlari.

2. XIX asrning 90-yillarida boshlanib, 1905-1907 va 1917-yillarda katta g’alabalarga erishgan rus sotsial demokratik va inqilobiy xarakatlari.

3. Turkiyadagi aksilmonarxist, konstitutsion demokratik, ijtimoiy-milliy uyg’onish harakatlari: Tanzimat (1840-1860), Yosh usmonlilar (1865-yildan 80-yillargacha), Yosh Turklar (1889-1918) va 1908-1909-yillardagi demokratik inqilobiy harakatlar.

4. Jadidchilik harakatining paydo bo‘lib, rivojlanishida qrimlik Ismoilbek Gaspiralining (1851-1914) hissasi behad katta bo‘ldi. <sup>3</sup> Ismoil Gaspirali 1880-yillardayoq Qirimda, Rossiya mustamlakalari ichida birinchi bo‘lib jadidchilikka asos soldi. Uning Turkistonga tez kirib kelgan rus va turkey tillarda chop etilgan “Tarjimon” (1883-1914) gazetasi, “Rossiya musulmonligi” (1881), “Ovrupa madiyatiga bir nazar muvozini” va boshqa asarlari hamda jadid maktablari uchun yozgan darslik va qo’llanmalari juda mashhur bo‘ldi.

Ismoilbek Gaspirali 1893-yilda Toshkentga keladi va ziyoli ulamolar bilan

<sup>3</sup> O‘bekiston tarixi 2-jild (XIX asr II yarmi – 1991-yil avgust) oliy o‘quv yurti talabalari uchun darslik. T.: 2015. B-162.

uchrashadi. Samarqandga ham boradi. Samarqanddan Buxoroga borib, Buxoro amri Amir Abdulaxadni jadid maktabi ochishga ko'ndiradi va bu maktabga "Muzaffariya" degan nomni beradi.

Jadidlar ikki xil qarama-qarshi munosabatlarga asoslangan tuzumlarning o'rtasida shakillana oldilar, ya'ni dinniy muttasiblikka asoslangan jamiyat va bu jamiyatni o'ziga qaram qilishni maqsad qilgan bolsheviklar jamiyati. Buning uchun o'sha davrda juda katta ma'naviy va jismoniy kuch bo'lishlik kerak edi insonda. Aynan jadidlar har ikkala kuchni o'zida namoyan qila oldilar. Bo'layotgan vaziyatni: qoloqlik, muttasiblik, xudbinlik, qaramlik, bosqinchilik kabilarni ular his qilardilar. Ular tushundilarki, xalqni budan qutqarishning yagona yo'li ularni savodli qilish, huquq va majburiyatlarini o'rgatish kerakligini.

Buxoro diyorida yetishib chiqqan jadidlar orasida eng mashhurlari Ahmad Donish, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo'jayev, Abduvohid Burxonov, Atoulla Xo'jayev, Mirzo Narzullo, Abduqodir Muhitdinov, Musajon Saidjonov, Rahmat Rafiq Abdullabekov, Said Axroriy, Qori Yo'ldosh Po'lotov va boshqalar. Bu kabi mashhur jadlilarning nomlari, meroslari va shu bilan birgan marifatga intilgan pok qalblari ham bugun bizga qadar yetib kelmoda. Bizni vazifamiz, mana ulug' merosdan go'zal tarzda foydalanib, keyingi avlodlarga uzatishimizdir.

**Xulosa.** XX asr boshlarida Buxoroda jadidchilik harakati ta'lim tizimiga yangiliklar kiritish, ilm-ma'rifatni rivojlantirishga qaratilgan edi. Bu harakatning pedagogik qarashlari hozirgi ta'lim tizimining shakllanishida muhim ahamiyatga ega. Buning uchun biz eng avvalo shu harakatning vujudga kelish tarixini ko'rib chiqdik. Qanday sharoitda vujudga kelib, shakillanganidan bexabar boshqa jihatlarini o'rganadigan bo'lsak, bu yuzaki ilm bo'lib qolardi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'bekiston tarixi 2-jild (XIX asr II yarmi – 1991-yil avgust) oliv o'quv yurti talabalari uchun darslik. T.: 2015. B-162.
2. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2-jild. "Turkiy guliston yoxud axloq" T, Ma'naviyat, 2006.
3. Jadidchilik: islohot, yangilanish, mustaqillik va taraqqiyot uchun kurash.(Davriy to'plam) T.: Universitet. 1999. 30b.
4. "Sharq yulduzi", 1992-yil, 10-son, 173 b.